



# YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2021/5



# MUNDARIJA

12.00.01 – DAVLAT VA HUQUQ  
NAZARIYASI VA TARIXI.  
HUQUQIY TA'LIMOTLAR TARIXI

- |    |   |
|----|---|
| 6  | <b>ОДИЛҚОРИЕВ ХОЖИМУРОД ТҮХТАМОРДОВИЧ</b><br>Қонунчиллик ҳужжатлари тизимини такомиллаштиришнинг замонавий ҳуқуқий асослари                       |
| 14 | <b>МУХИТДИНОВА ФИРЮЗА АБДУРАШИДОВНА</b><br>Роль преемственности трудов Гафура Гуляма в развитии духовно-просветительских традиций будущих юристов |
| 21 | <b>ISMOILOV BEKJON SALIOVICH</b><br>Nogironligi bo'lgan shaxslar ta'limi sohasida O'zbekiston qonunchiligini takomillashtirish muammolar          |
| 31 | <b>ШАЯКУБОВ БАБУР АХМАДЖАНОВИЧ</b><br>Стратегическое планирование: теоретические и методологические аспекты                                       |

12.00.02 – KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ.  
MA'MURIY HUQUQ.  
MOLIYA VA BOJXONA HUQUQI

- |    |  |
|----|--|
| 39 | <b>БЕКОВ ИХТИЁР РУСТАМОВИЧ</b><br>Ўзбекистонда кўп partiyaviy tizimning shaklaniishi va rivojlaniishi        |
| 50 | <b>RAKHIMOV DILMURODJON GULOMJON OGLI</b><br>Some issues of the legal status of civil servants in Uzbekistan |

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI.  
TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA  
HUQUQI. XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- |    |   |
|----|---|
| 59 | <b>БОЗАРОВ САРДОР СОХИБЖОНОВИЧ</b><br>Искусственный интеллект: возможна ли ответственность роботов? |
|----|---|

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. XO’JALIK PROTSESSUAL  
HUQUQI. HAKAMLIK JARAYONI VA  
MEDIATSIYA

- 70 **ХАБИБУЛЛАЕВ ДАВЛАТЖОН ЮЛЧИБОЕВИЧ**  
Fuqarolik ishlari bўйича birinchi  
instansiya суди xўжжатларини  
takomillashaftirosh masalalari
- 81 **ҲАКБЕРДИЕВ АБДУМУРАД АБДУСАЙДОВИЧ**  
Ҳакамлик sud ishlarini raqamlashtirishda sun'iy  
intellektning o'rni
- 88 **PIRMATOV OTABEK SHAVKATOVICH**  
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda prokuror  
ishtiropining ayrim masalalari
- 95 **XUDOYNAZAROV DADAXON AVAZ O'G'LΙ**  
Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror  
ishtiropining ayrim masalalari
- 101 **DAVRONOV DONIYORBEK ABDULLO O'G'LΙ**  
Fuqarolik sud ishlarini yuritishda protsessual  
majburlov choralarini tadqiq etish muammolari
- 110 **ХАЙРУЛИНА АСАЛЬ БАХОДИРОВНА**  
Возникновение и развитие альтернативных  
способов разрешения споров: национальный  
и зарубежный опыт
- 117 **BEBUTOVA ZARNIGOR FAXRIDDINOVNA**  
Fuqarolik protsessida advokat faoliyatining  
dolzarb muammolari: milliy va xorijiy tajriba
- 125 **СУБХОНОВ ШЕРАЛИ МУХАММАД УГЛИ**  
Некоторые вопросы совершенствования  
механизма исполнения судебных решений  
о взыскании алиментов
- 133 **ГАЗИЕВ ШАХРУХ МУРОДАЛИЕВИЧ**  
Харбий ijtimoiy-xукуқий ҳимоя:  
tushunchasi va moҳияti
- 140 **ТОШОВ МУХАММАД РАЖАБОВИЧ**  
Ўриндошлик асосида ishlamайдиган boşqa  
ходимнинг ishga қабул қилиниши, shuningdek,  
ўриндошлик иши cheklanganligi sababli  
meҳnat шартномасини bekor қилиш masalalari

12.00.05 – MEHNAT HUQUQI.  
IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI

**12.00.08 – JINOYAT HUQUQI.  
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI  
OLISH. KRIMINOLOGIYA.  
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI**

- 148 **SUNNATOV VOHID TOSHMURODOVICH**  
Qilmishni kvalifikatsiya qilish tushunchasi,  
metodologik asoslari va bosqichlari

- 156 **TOШПҮЛАТОВ АКРОМ ИКРОМОВИЧ**  
Жиноят-хуқуқий принциплар: моҳият,  
тушунча ва белгилар

- 166 **ALOYEV ULUG'BEK MAXMUDOVICH  
ROZIMOVA QUNDUZ YULDASHEVNA**  
Korrupsiyani keltirib chiqarishga ta'sir etuvchi  
omillar

- 174 **АНОРБОЕВ МУРОДЖОН  
РАХМАНКУЛ УГЛИ**  
Общая характеристика преступлений  
против правосудия

**12.00.10 – XALQARO HUQUQ**

- 182 **USMANOVA SURAYYO BULTAKOVNA**  
The legal and institutional regulation of tourism  
in the Republic of Uzbekistan: emergence and  
development

**13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA  
NAZARIYASI VA METODIKASI  
(SOHALAR BO'YICHA)**

- 190 **АЗИМОВ ҲАКИМАЛИ ИМОМОВИЧ**  
Амир Темурнинг тарихий мероси – инсоният  
тараққиётининг муҳим омили

UDC: 347.963(042)(575.1)  
ORCID: 0000-0001-7717-5747

## IQTISODIY SUD ISHLARINI YURITISHDA PROKUROR ISHTIROKINING AYRIM MASALALARI

Xudoynazarov Dadaxon Avaz o'g'li,  
Toshkent davlat yuridik universiteti  
tayanch doktoranti,  
e-mail: dadaxon.xudoynazarov92@mail.ru

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Harakatlar strategiyasida ko'rsatilgan sud protsessida tomonlarning tortishuviga teng huquqligini belgilanganligi, prokurorlarning asosiy yo'nalishlari, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror ishtiroki, prokurorning iqtisodiy sudning birinchi instansiadagi ishtiroki, murojaat etish tartibi, ish bo'yicha prokuror fikri, qonunda belgilangan huquq va majburiyatlari, appellatsiya va kassatsiya protesti, prokuror ishtirokini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlash bo'yicha statistika, prokurorning sudsardagi ishtiroki bo'yicha qonunchilikka kiritilgan so'nggi o'zgartirish va qo'shimchalar, ularning mazmun va mohiyati, prokurorning faqat qonunda belgilangan hollarda yoki uning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi, Sudyalar oly kengashi prokuratura organlariga taqdimnomaga kiritishi, prokurorning iqtisodiy sudsardagi appellatsiya va kassatsiya instansialaridagi ishtiroki, yuridik adabiyotlar va darsliklarda prokuror ishtiroki bo'yicha olimlar tomonidan bildirilgan fikrlar, qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan berilgan takliflar va tavsiyalar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** iqtisodiy suds, prokuror, prokuror ishtiroki, prokurorning huquq va majburiyatlari, prokuror fikri, appellatsiya protesti, kassatsiya protesti, statistika.

### НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ УЧАСТИЯ ПРОКУРОРА В ЭКОНОМИЧЕСКИХ СУДАХ

Худойназаров Дадаxon Аваз угли,  
базовый докторант  
Ташкентского государственного юридического университета

**Аннотация.** В данной статье определены принцип состязательности и равноправия сторон судебного процесса, указанный в Стратегии действий, основные направления деятельности прокуроров, участие прокурора в экономическом процессе и хозяйственном суде первой инстанции, порядок обжалования, заключения прокурора по делу, апелляционные и кассационные протесты, проделанная работа по расширению участия прокурора, статистика по обеспечению полномочий прокурора в хозяйственном производстве, последние изменения и дополнения в законодательство об участии прокурора. Рассмотрены понятие прокурора в судах, его содержание и сущность, порядок участия прокурора только в предусмотренных законом случаях или по делам, инициированным прокурором, верховным советом судей, который подает в прокуратуру ходатайства, прокурорскую апелляцию и кассацию в хозяйственные суды, анализируются мнения, высказанные учеными в юридической литературе и учебниках об участии прокурора в экономических судах, кроме того, даны предложения и рекомендации по совершенствованию законодательства.

**Ключевые слова:** хозяйственные суды, прокурор, участие прокурора, права и обязанности прокурора, апелляционный протест, кассационный протест, статистика.

### SOME ISSUES OF PROSECUTOR'S PARTICIPATION IN ECONOMIC COURTS

Khudoynazarov Dadakhon Avaz ugli,  
basic doctoral studies  
Tashkent State University of Law

**Abstract.** This article defines the principle of adversariality and equality of the parties to the trial in the specified Action Strategy, the main areas of activity of prosecutors, the participation of the prosecutor in the economic process,

*the participation of the prosecutor in the economic court of first instance, the procedure for appeal, the conclusion of the prosecutor in the case, appeals and cassation protests, the work done on expanding the participation of the prosecutor, statistics on ensuring the powers of the prosecutor in economic proceedings, recent changes and additions to the legislation on the participation of the prosecutor. The prosecutor in the courts, their content and essence, the participation of the prosecutor only in cases provided for by law or in cases initiated by the prosecutor, the Supreme Council of Judges submits petitions to the prosecutor's office, the prosecutor's appeal and cassation to the economic courts, opinions expressed by scientists on the participation of the prosecutor in legal literature and textbooks, as well as suggestions and recommendations for improving legislation.*

**Keywords:** economic courts, prosecutor, prosecutor's participation, rights and obligations of the prosecutor, appellate protest, cassation protest, statistics.

Bugungi kundagi barcha islohotlarning zamirida inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari yotadi. Mana shunday islohotlar majmusa-sida sud-huquq sohasini isloh qilish, jismoniy va yuridik shaxslarning huquqi, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish, odil sudlovga erishish, jamiyatda huquqiy madaniyat va huquqiy ongni yuksaltirish borasida qator ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shuningdek, prokuratura organlarining sudlar faoliyatidagi vakolatlarini belgilab berish borasida ham qonun hujjatlariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sndlarda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirishdir.

Ma'lumki, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida sud protsessida tomonlarning tortishuvi va teng huquqlik tamoyilini har tomonlama tatbiq etish [1], fuqarolarning murojaatlarini o'z vaqtida hal etish, murojaatlarni ko'rib chiqishda sansalorlik, rasmiyatçilik va loqayd munosabatda bo'lish holatlariga yo'l qo'yganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta'minlash, shuningdek, buzilgan huquqlarni tiklashning barcha zarur choralarini ko'rish, sud, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyatida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash, huquqni muhofaza qiluvchi va nazorat idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati mexanizmlari samaradorligini oshirish fuqarolarning huquqni muhofaza qilish tizimiga bo'lgan ishonchini mustahkamlashning ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi qonuniga binoan, prokuror fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning

huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini sud yo'li orqali samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rيلayotganda, qonunda nazarda tutilgan tartibda ishtirok etishi belgilangan [2]. Bundan tashqari, prokuror sud protsessidagi boshqa ishtirokchilar bilan teng huquqlardan foydalaniib, sudyalarning mustaqilligi prinsipi hamda protsessual qonunchilik normalariga qat'iy rioya etish prinsipiga amal qilishi shartligi keltirib o'tilgan.

Shunday kelib chiqib, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida qonun ustuvorligini ta'minlash, qonuniylikni mustahkamlash, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilish O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari zimmasiga yuklatilgan va bu boradagi o'zgarishlar iqtisodiy ishlar bo'yicha sndlarda ham prokurorning iqtisodiy protsessdagi o'rni va ishtirok etish shakllarini qayta ko'rib chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, prokuratura uzoq muddatlar davomida insonlarda jazolovchi organ sifatida tasavvur uyg'otib kelgan. Prokuratura tizimi har jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ya'ni u inson huquq va erkinliklari, davlat va jamiyat manfaatlarining haqiqiy himoyachisi, qonun ustuvorligi va adolat tantanasi yo'lida faoliyat yurituvchi tizim sifatida maydonga chiqmoqda [3].

Prokuror iqtisodiy protsessning mustaqil ishtirokchisi hisoblanadi. Uning iqtisodiy protsessda ishtirok etishi O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi, "Prokuratura to'g'risida"gi qonun va Bosh prokurorning tegishli buyruqlari hamda boshqa qonunchilik normalari bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi 49-moddasida iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokurorning ishtirok etishi belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra, tumanlararo, tu-

man (shahar) iqtisodiy sudlariga da'vo arizasini Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar, tumanlar prokurorlari va ularga tenglashtirilgan prokurorlar kiritadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlariga esa Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar prokurorlari yoki ularning o'rnbosarlari taqdim etadi [4].

Shuningdek, bosh prokuror yoki uning o'rnbosari barcha iqtisodiy sudlarga da'vo arizasi taqdim etishga haqli ekanligi belgilangan.

Bundan tashqari, prokuror faqat qonunda belgilangan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi asosida qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkin.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 17-noyabrdagi "Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rlishida prokuror ishtiroking samaradorligini yanada oshirish to'g'risidagi 125-son buyrug'iga ko'ra, quyidagi iqtisodiy sudlarda prokuror ishtirokining majburiyligi belgilangan:

sud ishda prokurorning qatnashishini zarur deb topgan hollarda;

prokurorning arizalari bo'yicha qo'zg'atilgan ishlarda;

davlat mulkini himoya qilish bilan bog'liq ishlarda;

yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni aniqlash to'g'risidagi ishlarda;

mulk huquqini tan olish to'g'risidagi ishlarda;

xalqaro va davlatlararo shartnomalar, kelishuvlar to'g'risidagi ishlarda;

bankrot deb topish to'g'risidagi ishlarda;

undirish so'zsiz tartibda amalga oshiriladigan ijro hujjati yoki boshqa hujjatni ijro etish mumkin emas deb topish to'g'risidagi ishlarda;

atrof-muhitni muhofaza qilish haqidagi qonunchilik buzilishi bilan bog'liq ishlarda;

davlat va jamoat ehtiyojlari uchun yer uchastkalarining olib qo'yilishi munosabati bilan yetka-zilgan zararni qoplash to'g'risidagi ishlarda qatnashishi belgilangan [5].

E'tibor qaratadigan bo'lsak, prokuror boshqa shaxslarning arizalari bilan qo'zg'atilgan ishning muhokamasida o'z tashabbusi bilan ishtirok etishi mumkin emasligi belgilab qo'yilgan. Eng e'tiborli jihat shuki, ishda ishtirok etuvchi prokuror ishning mazmuni bo'yicha fikrini bayon etadi, deb ko'rsatilgan, bundan uning boshqa shaxslarning

huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishga doir da'vo arizasi bo'yicha qo'zg'atilgan ishlar mustasno ekanligi aytilgan.

Shuni alohida qayd etish kerakki, fuqaroning, yuridik shaxsning va davlatning manfaatlarini ko'zlab da'vo arizasi (ariza) taqdim etgan prokuror da'vogarning huquqlaridan foydalanaadi va uning majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi, bundan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqi mustasno. Demak, prokuror da'vogarning huquqlaridan biri sanalgan kelishuv bitimi yoki mediativ kelishuv tuzish huquqidan foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Agar prokuror o'z da'vo arizasidan voz kechsa, da'vogar (arizachi) ishni mazmunan ko'rib chiqishni talab qilish huquqiga ega.

Lekin prokuror tomonidan da'vogarning huquqini himoya qilish maqsadida taqdim etilgan da'vodan da'vogarning voz kechishi da'vo arizasini (arizani) ko'rmasdan qoldirishga olib kelishi nazarda tutiladi [6].

O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi qonunning 33-moddasiga binoan, fuqarolar, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning huquqlari hamda qonuniy manfaatlari sud yo'li bilan samarali himoya qilinishini ta'minlash maqsadida barcha instansiya sudlarida ishlar ko'rileyotganda, prokuror qonunda belgilangan tartibda ishtirok etishi va sud protsessining boshqa ishtirokchilari bilan teng huquqlardan foydalananish imkoniga ega bo'lib, sudyalarning mustaqil ligi hamda protsessual qonunchilik normalariga qat'iy rioya etish prinsipiiga amal qilishi shartligi belgilangan.

Yuridik adabiyotlarda prokurorning ishtiroki bo'yicha fikrlar keltirilgan. Unga ko'ra, prokurorning iqtisodiy protsessda ishtirok etishining asosiy maqsadi davlat va jamiyat manfaatlarini iqtisodiy protsessual qonunchilikda belgilangan asoslar va talablar bo'yicha himoya qilishga qaratilgan [7].

Shuningdek, prokurorning tashkiliy faoliyatidagi muhim xususiyatlaridan biri bu uning har qanday davlat organlari, jamoat birlashmalari, mahalliy organlar va mansabdor shaxslardan mustaqil ekanlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqadigan bo'lsak, prokurorning iqtisodiy ishlar bo'yicha sud protsesslarida ishtirok etishi qonunchilik bilan tartibga solingen.

Bundan tashqari, prokurorning yuqori turuvchi instansiyalarda ham ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. Jumladan, prokuror hamda yuqori turuvchi prokuror faqat prokuror ishtirokida ko'rigan ishlar bo'yicha, shuningdek, taraflardan kelib tushgan murojaat mavjud bo'lgan taqdirda, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirmagan hal qiluv qarori ustidan appellatsiya protesti keltirish va uni keltirgan prokuror yoki yuqori turuvchi prokuror ishni ko'rish yakuni bo'yicha sud hujjati chiqarilguniga qadar protestni chaqirib olishga haqli ekanligi belgilangan bo'lsa, birinchi instansiya sudining qonuniy kuchga kirgan, appellatsiya tartibida ko'rigan hal qiluv qarori va appellatsiya instansiysi sudining qarori ustidan, agar ish bo'yicha prokuror ishtirok etgan bo'lsa, shuningdek, taraflarning murojaati mavjud bo'lgan taqdirda, kassatsiya protesti keltirishga haqli ekanligi belgilangan [8].

Iqtisodiy sud ishlarini yuritishda prokuror vakolatini ta'minlashda statistikaga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, xususan, shartnomaviy majburiyatlaridan kelib chiqqan holda va boshqa turdag'i nizolarni iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarda, Oliy sudning iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida ishlar ko'riliши amaliyoti o'rganib chiqildi. Aniqlanishicha, respublika bo'yicha iqtisodiy sudlarning birinchi instansiysi tomonidan jami 100577 ta ish ko'rigan. Shundan da'vo arizalari hamda davlat manfaati bilan bog'liq 11839 ta ishlar ko'riliшиda prokuror ishtirok etgan [9].

Prokurorlar tomonidan kiritilgan jami 225,5 mlrd so'mlik 3658 ta da'vo arizalari iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlarda ko'rilib, ularning 201,7 mlrd so'mlik 3502 tasi qanoatlantirilgan. Ushbu davrda iqtisodiy sudlarning jami 4039 ta qarori yuqori bosqich sudlarida qayta ko'rigan bo'lib, mazkur sud qarorlarining 1489 tasi bekor qilingan yoki o'zgartirilgan. Xususan, appellatsiya instansiyasida jami 1838 ta ishlar ko'rilib, shundan 567 ta sud qarorlari o'zgartirilgan yoki bekor qilingan, ularning 108 tasi appellatsiya protestlari zimmasiga to'g'ri keladi. Kassatsiya instansiyasida jami 1677 ta ish ko'rilib, shundan o'zgartirilgan yoki bekor qilingan 589 ta sud qarorining 214 tasi kassatsiya protestlari asosida o'zgartirilgan yoki bekor qilingan.

Oliy sudning iqtisodiy ishlar bo'yicha sudlov hay'atida ko'rigan jami 499 ta ish bo'yicha sud qarorlarining 312 tasi bekor qilingan yoki o'zgar-

tirilgan. Ularning 30 tasi Bosh prokuraturaning protestlari hamda 469 tasi taraflarning shikoyatlari asosida qayta ko'rigan. Oliy sudning Rayosatiga jami 21 ta, shundan Bosh prokuratura tomonidan 12 ta hamda Oliy sud tomonidan 9 ta protestlar keltirilgan. Protestlarning barchasi Rayosatda qanoatlantirilgan.

Bundan tashqari, iqtisodiy sohada qonunchilik ijrosi ustidan nazorat, tadbirkorlikni rivojlantirish, eksportni kengaytirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish kabi hayotiy muhim masalalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

2019-yilning ikkinchi yarmi va joriy yilning o'tgan davridagi nazorat tadbirlarida 7,7 ming nafar tadbirkorning buzilgan huquqlari tiklandi, 29 ming nafariga muammolarini bartaraf etishda ko'maklashildi. Prokurorlar ko'magida 25 mingta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etildi, faoliyatiga to'xtab qolgan 28 mingga yaqin korxona tiklandi. Prokurorlar tashabbusi bilan 905 ta subyekt eksport faoliyatiga jalb etildi. 2113 ta eksportyor korxonalarining litsenziya, kredit, yer va bino olish hamda boshqa masalalarga doir muammolari hal etilib, 518 tasining 92,2 mln dollarlik qarzdorligini undirishga erishildi.

Shundan kelib chiqib, qonunchilikni takomillashtirish va qonun hujjatlarining amaliyotda bir xil qo'llanilishini ta'minlash, qonunchilikdagi bo'shliqlar, qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarni bartaraf etish orqali sud qarorlarining qonuniy, asosli va adolatli bo'lishiga erishish maqsadida qonun hujjatlariga kiritilgan oxirgi o'zgartish va qo'shimchalarga ko'ra prokurorlarning barcha iqtisodiy sud majlislarida ishtirok etish huquqi bekor qilindi [10]. Endilikda prokuror faqat qonunda belgilangan hollarda yoki prokurorning da'vo arizasi bilan qo'zg'atilgan ishlardagina ishtirok etishi mumkinligi belgilangan. Bundan tashqari, iqtisodiy ishlarni nazorat tartibida ko'rish instansiysi tugatildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonida prokuror tomonidan sudning qonuniy kuchga kirgan hukmi, hal qiluv qarori, ajrimi yoki qarori bo'yicha ishlarni, ushbu ishlar yuzasidan taraflar murojaati mavjud bo'lgan holdagini, suddan chiqirib olib o'rganish, qonunda nazarda tutilgan hollardan tashqari sudlarda boshqa shaxslarning

tashabbusi bilan qo'zg'atilgan iqtisodiy ishlarning ko'rili shida prokuror o'z tashabbusi bilan ishtirok etishini istisno etish lozimligi belgilangan [11].

So'nggi vaqtarda qonunchilikka kiritilgan o'zgartirishlarga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliv kengashi to'g'risidagi qonunga binoan, Kengash raisi sudyalarning daxlsizligini buzganlik va odil sudlovni amalga oshirishga aralashganlik holatlari yuzasidan prokuratura organlariga taqdimnoma kiritishi mumkinligi hamda kiritilgan taqdimnoma bir oy muddatda ko'rib chiqilishi va Kengash jinoyat ishi qo'zg'atilganligi to'g'risida yoki uni qo'zg'atish rad etilganligi haqidagi O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi tomonidan xabardor qilinishi belgilandi [12].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, iqtisodiy ishlarda prokuror ishtirokini yanada takomillashtirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni keltirib o'tishimiz lozim:

*birinchidan*, prokururlarning sudlardagi ish faoliyati bo'yicha barcha sayt va elektron ma'lumotlarni jamlovchi "Elektron hujjatlar" tizimini joriy etish;

*ikkinchidan*, prokuratura organlari xodimlarining ish hajmi bugungi kunda yuqoriligidagi qolmoqda. Shularni inobatga olgan holda, sudlarda prokuror ishtirokini "sudda onlayn ishtirok etish" platformasini ishga tushirish;

*uchinchidan*, prokuror tomonidan sudlarda ishtirok etilgan ishlarning "elektron banki"ni yaratish orqali qog'oz sarf-xarajatlarini keskin qisqartirish;

*to'rtinchidan*, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksida birinchi instansiya sudining ajrimi ustidan xususiy shikoyat (pro-

test) berish tartibi nazarda tutilgan. Biroq ushbu kodeksda protest shakli aniq belgilanmagan. Shu munosabat bilan IPKga unifikatsion tarzda "*Protest shakli*" nomli moddani kiritish;

*beshinchidan*, IPKga alohida "*Prokuror fikri*" moddasini kiritish kerak. IPK 173-moddasida ishda ishtirok etayotgan prokuror sud muzokaralari da nizoning mazmuniga doir fikrini oxirgi bo'lib bayon etishi belgilanganligidan kelib chiqadi;

*oltinchidan*, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, yagona davlat axborot tizimini yaratish, shuningdek, hujjatlarni elektron shaklda almashtirish (elektron qabul qilish) va videokonferensiyalardan foydalanish maqsadida prokuror ishtiroki bo'yicha "*Elektron da'vo arizasi*" va "*Elektron imzo*" to'g'risidagi yangi qoidalarni kiritish lozim.

Fikrimiz so'ngida xulosa qilib aytadigan bo'lsak, sudlarda prokuror ishtirokini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan yangicha o'zgarishlar fuqarolar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Sudlarda prokuror ishtirok etishiga raqamli texnologiyalarni samarali joriy etish, shuningdek, fuqarolar, tadbirkorlar va yuridik shaxslarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish, sudlarda prokuror ishtirokini masofadan turib amalga oshirish, elektron bazani shakllantirish, sud binosiga tashrif buyurmasdan turib "*Elektron da'vo arizasi*" va "*Elektron imzo*"larni elektron shaklda yuborish orqali xalqimizning prokuratura organlari va ularning xodimlari faoliyatiga bo'lgan ishonchini yanada mustahkamlash mumkin.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagagi "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" PF-4947-sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi "Prokuratura to'g'risida"gi (yang tahriri) Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 9-10-soni, 168-modda.
3. Yo'ldoshev N. (2020). Qonun ustuvorligi vaadolat tantanasini ta'minlash yo'lida. "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka". <https://yuz.uz/uz/news/qonun-ustuvorligi-va-adolat-tantanasini-taminlash-yolida/>.
4. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son.

5. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurorining 2015-yil 17-noyabrdagi "Iqtisodiy sudlarda ishlar ko'rilishida prokuror ishtirokining samaradorligini yanada oshirish to'g'risidagi 125-son buyrug'i.

6. Sh.Shorahmetov. O'zbekiston Respublikasining Xo'jalik protsessual huquqi: oliv o'quv yurtlarining huquqshunoslik mutaxassisligi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalari uchun darslik / mas'ul muharrir; M.Abdusalamov. Tashkent, Adabiyot jamg'armasi Publ., 2001, 200 p.

7. Iqtisodiy protsessual huquq. Darslik / Mas'ul muharrir y.f.d. Z.N. Eanova. Toshkent, TDYU, 2020, p. 535.

8. O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi 17.09.2021-y., 03/21/716/0877-son).

9. <http://hudud24.uz/odil-sudlovning-mu%d2%b3im-mezoni-sudyalarining-dahlsizligidir/>

10. Sud qarorlarini qayta ko'rish instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining "Iqtisodiy protsessual kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni (O'RQ-663-son, 12.01.2021-y.) Prezident tomonidan imzolandi.

11. [https://uza.uz/uz/posts/sudyalar-korpusi-ochiqlik-va-shaffoflik-asosida-eng-munosib-kadrlar-bilan-taminlanadi\\_313308](https://uza.uz/uz/posts/sudyalar-korpusi-ochiqlik-va-shaffoflik-asosida-eng-munosib-kadrlar-bilan-taminlanadi_313308)

12. O'zbekiston Respublikasining "Sudlar to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.07.2021-y., 03/21/703/0723-son).

13. O'zbekiston Respublikasi "Sudyalar oliv kengashi to'g'risida"gi Qonuni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son; 21.09.2021-y., 03/21/717/0892-son).

14. Pravovoe regulirovanie uchastija prokurora v arbitrazhnom processe. Dissertacii.

15. <https://prokuratura.uz/#/>

16. <https://proacademy.uz>

17. <https://sud.uz/>

18. <https://public.sud.uz/>

19. <https://online.zakon.kz>

20. <https://www.dissercat.com/>